Nazarov Anvarjon Tug‘unboyevich
University of Business and Science
Maktabgacha-boshlang‘ich ta’lim va jismoniy tarbiya kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

TURIZM TASHKILOTLARI VA SPORT UYUSHMALARIDA YO‘RIQCHI KADRLARNI TAYYORLASH USULLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15694562

Annotatsiya. Ushbu maqolada bilim orttirish, maxsus turizm bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorlashda nazariya va amaliyot o‘zaro bog‘liqligi, tayyorgarlikning ko‘rsatilgan bo‘limlarida sport turizmining har bir turi uchun umumiy va maxsus savollar mavjudligi, maxsus turistik tayyorlanish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim va tarbiya jarayoni, hududning an’anaviy belgilari, hududning yirik va masshtabsiz tasvirlari, yo‘nalishlari

Kirish

Hozirgi kunda jismoniy madaniyat, sport va turizm sohalari ahamiyatining ortib borishi natijasida, aholining turli qatlamlari, xususan o‘quvchi yoshlar va talabalar o‘rtasida sayr-ekskursiya hamda sayohat turlarini tashkil qilish va amalga oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Turizm sohasi rivojlanib borar ekan, unda ishtirok etuvchi jamoatchi kadrlar — instruktor va faollarni tayyorlash jarayonini tizimli va ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish zarurati kun sayin kuchaymoqda. Mazkur jarayon o‘quvchi-yoshlarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamoaviy ishlash, tabiat va madaniy meros obidalari bilan tanishish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Turizm bo‘yicha kadrlar tayyorlash jarayoni nafaqat maxsus o‘quv muassasalarida, balki umumiy ta’lim va boshlang‘ich tarbiya muassasalari, kasb-hunar kollejlari va ishlab chiqarish jamoalarida ham tashkil etilayotgani sohaga yangicha yondashuv va mazmun bag‘ishlamoqda. Shu nuqtai nazardan, turli soha va tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan yoshlar va talabalar uchun turizm asoslari, sayr va ekskursiyalarni tashkil etish, ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish bugungi kunning muhim talablaridan biridir.

Mazkur maqolada turizm (sayr-ekskursiya va sayohat turlari) bo‘yicha jamoatchi kadrlarni — instruktor va faollarni tayyorlash faoliyatining mazmun-mohiyati, asosiy jarayonlari hamda ularni amalga oshirishda bo‘lajak mutaxassislar rioya etishi zarur bo‘lgan tartib-usullar yoritiladi. Shuningdek, turizm sohasiga doir tashkilotlar va ularning joylardagi quyi bo‘linmalarining amaliy faoliyati, instruktor va faollarni tayyorlashning zamonaviy usullari, pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Turizm (sayr-ekskursiya va sayohat turlari) bo‘yicha jamoatchi kadrlarni (instuktor va faollar) tayyorlash bilan bog‘liq faoliyatlarni o‘rganish hamda ulardagi tartib-usullarni amalga oshirishda bo‘lajak mutaxassislar quyidagi jarayonlarga itoat etishlari lozim.

Jismoniy madaniyat va sport sohasidagi o‘quvchi yoshlar va talabalar turizm bo‘yicha o‘tkazilgan darslar, qo‘shimcha mashg‘ulotlar jarayonida ba’zi bir ma’lumotlar, talablar, ish uslublarini o‘rganishda qiyinchilik, tushunmovchiliklarga duch kelishi mumkin. Ya’ni jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, jismoniy madaniyat va sportni boshqarish kabi fanlarning mazmunidagi tashkilotchilik faoliyatlar, jamoatchi kadrlarni tayyorlashga doir yo‘1-yo‘riqlar keyingi bosqichlarda (III-IY) o‘tilishi mumkin. Shu sababdan o‘quvchi va talabalar doimo

mustaqil izlanish va o‘rganish jarayonlarini keyingi bosqichlardagi faoliyatlar bilan bog‘lab olib borishlari lozim.

Bolalar tarbiya muassasalari, boshlang‘ich ta’lim va umumta’lim jarayonlari bo‘yicha (fanlar ham) tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlar va talabalar (pedagogika kollejlari, fakultetlar) turizmdagi barcha faoliyatlarni o‘rganishlari, shuningdek jamoatchi kadrlar tayyorlash yo‘lidagi ishlar bilan ham mustaqil ravishda o‘rganishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari va maxsus ta’lim beruvchi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining (kasb-xunar kollejlari) o‘quvchi yoshlari va talabalari turizm bo‘yicha jamoatchi kadrlar, faollar va instruktorlar tayyorlash usullariga ko‘proq e’tibor berishlari lozim. Chunki, mehnat jarayonlarida har bir jamoada sayrlar (ekskursiya) va turli sayohatlarni (dam olish, xordiq chiqarish, piyoda yurish, o‘lka va tabiat bilan tanishish, sog‘lomlashtirish, maxsus testlar talabini bajarish va h.k.) tashkil qilishda mutaxassislar, rahbar xodimlarning bevosita yordami, ko‘rsatmalari zarur bo‘ladi.

Yuqorida bayon etilganidek, xalqaro va mahalliy turizmni (ekskursiya) tashkil qilishda O‘zbekturizm Milliy Kompaniyasi va ekosan-tur xalqaro jamg‘arma tashkilotlarining quyi (viloyat, shahar- tuman, boshlang‘ich tashkilot-jamoa) organlari (tarmoqlar) tomonidan tashkiliy va boshqaruv faoliyatlar amalga oshiriladi.

Turizm bo‘yicha fakultet va maxsus-kasbiy kollejlardagi o‘quvchi yoshlar va talabalar davlat granti (ta’minoti) va shartnomalar (pullik) asosida ta’lim olib, ular shtatli lavozimlarda xizmat qiladi. Shunday bo‘lsada, jamoalarda (o‘quv va mehnat) ommaviy ravishda yashash joylari hamda tarixiy-madaniy shaharlarga sayr-tomoshalar (ekskursiya) tashkil qilinishi hozirgi kunning da’vati va an’anaga aylanayotgan tashkil iy-boshqaruv tadbirdir. Ularni uyushtirish va o‘tkazishda jamoatchi faollar (aktiv) va tashkilotchi-instruktorlarsiz amalga oshirish ancha murakkab hisoblanadi. Shu sababdan yuqoridagi turizm tashkilotlari va jamg‘arma uyushmalari o‘zlarining kafolatli-tegishli tashkilotlari, jamoalarida faollar, jamoatchi kadrlar, instruktorlar tayyorlashlari lozimdir. Buning uchun esa eng avvalo har bir o‘quv muassalari, ishlab chiqarish mehnat jamoalari, madaniyat, ijodiyot va boshqa sohalardagi muassasalar tarkibida turizm (sayr-sayohat) bo‘yicha boshlang‘ich jamoa (to‘garak, kurs, seminar va h.k.) tashkil etishlari lozim. Bu bilan Respublikada jismoniy tarbiya, sport va turizmga doir amaldagi qoidalar, qarorlarni hayotga singdirish, shu asosda mehnatkash omma va o‘quvchi-talaba yoshlarning ma’naviy-jismoniy barkamolligini tarbiyalashda xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, O‘zbekturizm Milliy Kompaniyasi, Xalqaro ekosan-tur tashkiloti, o‘rmon xo‘jaligi va qo‘riqxona tashkilotlarining viloyatlar, shahar-tumanlar, hatto deyarli barcha o‘quv muassasalari, ishlabchiqarish mehnat jamoalarida ularning quyi tarmoqlari, boshqaruv tizimlari mavjud. Ularda xizmat qiluvchi mutaxassis xodimlar qamrovi keng va ko‘p qirrali ish jarayonlarida barcha faoliyatlarni tashkil qilishda amaliy jihatdan to‘la kuch- imkoniyatlarga ega emas, ya’ni shtatlarning kamligi, o‘zini-o‘zi moliyaviy ta’minlash tamoyillar bularga barcha shart-sharoitlar yaratishga lojizlik qilishi mumkin. Shu sababdan barcha tarmoqlarda (shahar-tuman, viloyat) turizm turlari bo‘yicha jamoatchi kadrlar tayyorlash ishlarini yo‘lga qo‘yishga to‘g‘ri keladi. Bunda Respublika kasaba uyushmalari Kengashi va uning tarkibidagi jismoniy madaniyat va sport jamiyatining Nizomi, ishlab chiqilgan qaror va uslubiy ko‘rsatmalarga tayanishlari zarurdir. Shu asosda sharoitlar, imkoniyatlar darajasida har yili 1-2 marotaba maxsus kurs, seminar mashg‘ulotlarini tashkil etib, ularga sportchilar, sayohatchi-faollarni jalb etish yo‘li bilan turizm instruktorlarini tayyorlashni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Respublikadagi "Yoshlik", "Talaba", kasaba uyushmalarining jismoniy madaniyat va sport tashkiloti, "Dinamo", "Vatanparvar", MHSX (Markaziy harbiy sport klubi), sport uyushmalari va jamiyatlarining ham viloyat, shahar-tuman va boshlang‘ich jamoa ter-

malari mavjud. Ularning ish faoliyatida sport turlari bo‘yicha turli musobaqalar, ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlari asosiy o‘rinda turadi.

Ommaviy sog‘lomlashtirish jismoniy madaniyat va sport tadbirlarining tarkibiy qismi turizm (sayr-sayohat) hisoblanadi. Shuningdek, bolalar tarbiya muassasalari va tarbiyachi, o‘qituvchi tayyorlaydigan Oliy va o‘rta maxsus (kasb-xunar kollejlari) o‘quv yurtlarida turizmni o‘qitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari bayon qilingan. Bundan turizmga aloqador bo‘lgan o‘quv yurtlari va turizm tashkilotlari ham maqsadli foydalanishlari mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, turizm (sayr-ekskursiya va sayohat turlari) sohasida jamoatchi kadrlarni — instruktor va faollarni tayyorlash zamonaviy jismoniy tarbiya va sport tizimining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash orqali o‘quvchi-yoshlar va talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, jamoaviy ruh va hamkorlikni mustahkamlash, o‘z ona yurti, tarixiy-madaniy merosi va tabiiy boyliklariga hurmat bilan qarash singari fazilatlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Shu bilan birga, turizm yo‘nalishidagi jamoatchi kadrlar va instruktorlarni tayyorlashda tizimli yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, respublikamizda mavjud tashkilot va jamiyatlarning hamkorligini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi nafaqat o‘quvchi va talabalar, balki keng jamoatchilikning ma’naviy-jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelgusida turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, ularni amaliyotga samarali jalb etish hamda tarmoqlararo integratsiyani kuchaytirish orqali mamlakatimizda sog‘lom, faol va vatanparvar avlodni tarbiyalashga keng zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Теория и методика спортивного туризма: учебник / под ред. В. А. Таймазова, Ю. Н. Федотова. – М.: Советский спорт, 2014. – С. 201–203.

2. Леонтьев, А. Н. Деятельность, сознание, личность / А. Н. Леонтьев. – М.: Смысл, 2004. – 351 с.

3. Matnazarov, O‘. L., Sharipov, A. K. Oliy o‘quv yurtlari jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarida inson omili // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2005. – № 2. – B. 106–107.

4. Masharipov, Y. Sport psixologiyasi. – Samarqand: SamDU nashr-matbaa markazi, 2013. – 98 b.

5. Теория и методика спортивного туризма: учебник / под ред. В. А. Таймазова, Ю. Н. Федотова. – М.: Советский спорт, 2014. – С. 123–124.

6. Теория и методика спортивного туризма: учебник / под ред. В. А. Таймазова, Ю. Н. Федотова. – М.: Советский спорт, 2014. – С. 127.

7. Федотов, Ю. Н., Востоков, И. Е. Спортивно-оздоровительный туризм : учебник. – М.: Советский спорт, 2003. – 78 с.